



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI

R.Bo'ritoshova

DTPI Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3-bosqich talabasi
ruxshonaakbarqizi05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340220>

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Matematika ta'limida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Juftlikda ishlash", "Guruhli ishlash" kabi metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishiga, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda matematika faniga qiziqishni oshirishi, darsda faol ishtirokini ta'minlashi va o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, interfaol metod, o'quvchi faolligi, ta'lim samaradorligi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilim olishi birinchi o'rinda turishini hamma yaxshi biladi. O'quvchi o'qituvchi bergan har bir bilimni yaxshi o'zlashtirishi uchun turli xil metodlarni qo'llash lozim. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Boshlang'ich matematika kursi- bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'qituvchidan yuqori kasbiy mahoratni talab qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga o'rgatadi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020 yil 7- maydagi "Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" to'g'risidagi qarori ham ushbu sohaga nisbatan e'tiborni kuchaytirdi va quyidagilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi :

- ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish;
- matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish.

Matematika darslari o'quvchilarda nafaqat hisob-kitob malakasini, balki mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik, xulosa chiqarish, muammoni hal etish kabi ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Shu bois dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat

kasb etadi. Interfaol metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni fikrlash jarayoniga faol qo'shadi va o'z fikrini mustaqil bayon etishga o'rgatadi.

Bunday yondashuv o'quvchini o'qituvchi bilan teng muloqotda bo'lishga, guruhda hamkorlikda ishlashga, o'z fikrini himoya qilishga undaydi. Masalan, "Aqliy hujum", "klaster", "blits-so'rov", "sinkveyn", "Venn diagrammasi", "bumerang" kabi metodlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, mavzuni tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Quyida 'Aqliy hujum' interfaol metodidan na'muna keltirilgan:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlarning o'рни beqiyosdir. Shunday samarali metodlardan biri — "Aqliy hujum" (Brainstorming) metodidir.

Ushbu metod matematika darslarida yangi mavzuni o'rganish, masalani tahlil qilish yoki muammoli vaziyatni hal etishda juda qulay hisoblanadi. "Aqliy hujum" metodining asosiy maqsadi — o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularda mavjud bilim va tajribalarni faol ishga solishdir.

Metodning qo'llanish bosqichlari:

1. Muammo yoki savolni qo'yish. O'qituvchi o'quvchilarga mavzuga oid bir savol yoki masala beradi. Masalan: "Sonlarni ko'paytirishni qaysi holatda tezroq bajarish mumkin?"

2. G'oyalarni yig'ish. Har bir o'quvchi o'z fikrini ochiq aytadi. Barcha takliflar yozib olinadi, hatto noodatiy yoki kulgili bo'lsa ham.

3. Tahlil bosqichi. O'quvchilar bildirgan fikrlar birgalikda tahlil qilinadi, eng maqbul yechim tanlanadi.

4. Xulosa chiqarish. O'qituvchi umumlash tiradi va to'g'ri yechimni birgalikda aniqlaydi.

Misol:

2-sinfda "Ko'paytirish va bo'lish" mavzusini o'rganishda o'qituvchi quyidagi savolni beradi:

> "3×4 ifodasining ma'nosini har xil yo'l bilan qanday tushuntirish mumkin?"

O'quvchilar turli fikrlar bildiradi: "3 ta 4 likni qo'shamiz", "4 ta 3 likni olamiz", "uchta to'rtlik deb o'qiyamiz" va hokazo. So'ngra ularning fikrlarini umumlash tirib, ko'paytirishning ma'nosi haqida yakuniy xulosa chiqariladi.

Metodning afzalliklari:

O'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantiradi.

Har bir bolaning darsdagi faolligini oshiradi.

Mavzuni mustaqil anglash va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Darsni jonli va qiziqarli qiladi.

Matematika fanining o'ziga xosligi shundaki, unda o'quvchi o'rganayotgan tushunchalarni amaliy faoliyatda qo'llab ko'radi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, masalani turli yo'llar bilan yechishga harakat qiladi, bu esa ularning tafakkurini kengaytiradi. Shu bilan birga, o'yinli metodlardan foydalanish kichik yoshdagi o'quvchilarda qiziqish va eslab qolish samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarida muammoli vaziyatlar yaratish, ijodiy topshiriqlar berish orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish mumkin. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchi tayyor



javobni emas, balki muammoni tahlil qilib, o'z fikrini ilgari suradi. O'qituvchi esa yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Natijada dars jarayoni jonlanadi, o'quvchi darsning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va interfaol usullar uyg'unligida tashkil etilgan dars o'quvchilarda chuqur bilim, mustahkam ko'nikma va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Bunday darslarda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini asoslab ayta olish, jamoada ishlash, qaror qabul qilish kabi hayotiy ko'nikmalar rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularni faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bunday metodlar ta'lim sifatini oshirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sidiqova D., Jabborova G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2020.
2. Mehmonov M.H., Abduraximov Z.A. Interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi mohiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
4. Kurbanova Z.Y. Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish va ularning samaradorligi. – Toshkent, 2021.
5. Ahmedov, A. va Xolmo'minova, O. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF DARSLARIDA TEKSHIRISH METODLARIDAN FOYDALANISH. Tibbiyot, pedagogika va texnologiya: nazariya va amaliyot , 2 (10), 258-261.
6. Ahmedov, A. (2025). BAŞLANGICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK TUSHUNCHALARNI O'QITISHDA SUN'YIY INELLEKT ILOVALARIDAN FOYDALANISH. Tadbirkorlik va pedagogika , 4 (1), 249-255.
7. Ahmedov, A., & Xolmo'minova, O. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF DARSLARIDA TEKSHIRISH METODLARIDAN FOYDALANISH. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(10), 258-261.
8. Ahmedov, A. (2023). Boshlang 'ich sinf matematika darslarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning nazariy ahamiyati. in Library, 4(4), 119-127.